

60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta'lim yo'nalishi fanlar katalogi

T/r	Fanning kodi*	Fanning nomi	Fanning qisqa tavsifi	Kredit miqdori	Semestr	Professor-o'qituvchilar F.I.Sh., ilmi yunvoni va darajasi
1-bosqich 1-semestr: Majburiy fanlar						
1	AMAT11210	Amaliy matematika 1,2	Ushbu kursda iqtisodiyotning barcha yonalishlarida qo'llaniladigan matematik tushunchalarning asoslari o'rganiladi. Bizga ma'lumki iqtisodiyotdagi masalalar avval matematika tiliga so'ngra matematik tildan yesa algebra tiliga o'giriladi. Natijada iqtisodiy masalalarni yechish uchun ularni algoritmlari yaratiladi. Iqtisodidagi masalalarni yechishda zamonaviy usullardan biri bu "machine learning" bo'lib, asosan katta hajmdagi ma'lumotlar omborini tahlil qilishda "Python" dasturlash tilining "numpy", "pandas", "matplotlib", "sklearn" kutubhonalafidan foydalaniladi. Bu kutubhonalalar chiziqli algebra, analitik geometriya, matematik analiz, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika tushunchalari asosida yaratilgan. Statistika ma'lumotlarni tahlil qilishda "Stata" dasturiy paketi haqida ham huddi shunday fikrlarni bildirish mumkin. Kurs chiziqli algebra, analitik geometriya, matematik analiz, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika bo'limlaridan iboratdir. Chiziqli algebra qismi matritsalar nazariyasidan boshlanib vektor fazo tushunchalarigacha bo'lgan qismni o'z ichiga oladi. Matematik analiz qismi funksiyalardan boshlab, differensial tenglamalar kursini ham o'z ichiga oladi.	5	1	
2	IQN11210	Iqtisodiyot nazariyasi 1,2	Ushbu fan iqtisodiyotning asosiy fundamenti bo'lib, u birinchi kursning birinchi semestrida o'qitiladi. Iqtisodiyot nazariyasi fanining maqsadi iqtisodiyotga kirish, bozorning vazifalarining amal qilishini o'rganishni o'qitishga qaratilgan. Fanning tarkibini tushunish tadbirkorlik qarorlarini qabul qilish, iqtisodiy siyosatni tushunish va ishlab chiqish, umuman olganda zamonaviy iqtisodiy faoliyatni o'rganish kabi jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Iqtisodiyot nazariyasi fani quyidagi tarkibiy tuzilmadan iborat: Iqtisodiyot faniga kirish.	5	1	

			O'quv dasturining birinchi qismida asosiy iqtisodiy muammo, ishlab chiqarish omillari, ishlab chiqarish imkoniyatlari qiymati va ishlab chiqarish imkoniyatlari yegri chiziqlarini o'z ichiga olgan fundamental g'oyalar va tushunchalar keltirilgan. Iqtisodiy resurslarning taqsimlanishi Bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslarni taqsimlashning asosiy tamoyillari narx mexanizmi orqali ko'rib chiqiladi. Talab va taklifning bozor kuchlari, bozor muvozanati va nomutanosiblik, yegiluvchanlik ushbu bo'limning asosini tashkil yetadi. Mikroiqtisodiy qaror qabul qilinishi. Mikroiqtisodiyot o'rganishning muhim sohasidir va bu yerda asosiy asosiy qaror qabul qiladiganlar: banklar, uy xo'jaliklari, ishchi kuchi, kasaba uyushmalari va tadbirkorlarning roli orqali amalga oshiriladi. Davlat va makroiqtisodiyot. Davlatlar turli xil makroiqtisodiy maqsadlarga yega va ko'pincha ularga yerishish uchun qo'llaniladigan choralarni tanlash o'rtasida ziddiyatlar yuzaga keladi. O'zgarishlarning sabablari va oqibatlari va tegishli siyosatlarini ko'rib chiqish			
3	IAKTT1105	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsi on texnologiyalar va tizimlar	Mamlakatda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy yetish yuzasidan izchil ish olib borilmoqda. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini boshqarish va joriy yetish sohasidagi bir qator tizimli muammo va kamchiliklar ushbu sohaning jadal rivojlanishiga, sifatli axborot xizmatlarini ko'rsatishga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu kurs yordamida talabalar iqtisodiyotda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish, yelektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy yetishning imkoniyatlari, afzalliklari, dasturiy va texnologik ta'minoti, zamonaviy texnik vositalar, operasion tizimlar va zamonaviy dasturlarda axborotlarni qayta ishlash va hisob-kitoblarni amalga oshirish, hisoblash jarayonlarini avtomatlashtirish tamoyil va uslublari bilan chuqur hamda har tomonlama o'rganadilar. Shuningdek, katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash va unda bulutli texnologiyalarni qo'llash, axborot tizimlari va texnologiyalari xavfsizligini ta'minlashning strategik yo'nalishlari, raqamli iqtisodiyotning blokcheyn texnologiyalari bilan amallarni bajarish, biznes-muhitlarda biznes axborot tizimlarining faoliyat yuritishi, yelektron biznes va biznes anatilika xisobotlarini	5	1	

			tayyorlash va samarali foydalanish bo'yicha har tomonlama bilimlarga yega bo'ladilar.			
4	XT11106	Xorijiy til 1 (ingliz nemis)	Xorijiy til 1 (ingliz nemis) kursining maqsadi talabalarga chet tilida malaka va muomala ko'nikmalarini berish, ularning bugungi global madaniyat dunyosini hisobga olgan holda o'zlarining kasbiy va ilmiy sohalarida samarali ishlashlariga imkon berishdir. Ushbu daraja quyidagi ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan: chet tili bilan aloqa qilish kompetensiyasi, lingvistik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, sotsial-madaniy kompetensiya, ijtimoiy o'zaro ta'sir kompetensiyasi va pragmatik kompetensiya hamda og'zaki va yozma nutqni o'stirish ko'nikmalari. Ushbu ingliz nemis tili kursi 1-2 semestrda rejalashtirilgan va "Chet tillarni bilishning umumyeвроpa kompetensiyasining tinglash, o'qish, yozish va gapirish kompetensiyalarini baholash (CEFR) tizimi" til o'rganish standartlariga muvofiq nemis tilida A1,A2-B1 darjasida nemis tilini o'rganish uchun mo'ljallangan. Kurs ingliz nemis tili tamoyillari va kommunikativ, interaktiv ko'nikmalar yondashuvlari, o'quv jarayoni uchun umumiy bo'lgan grammatik mavzular, o'xshash sintaktik hodisalar, tinglash, yozish, o'qish va gapirish qobiliyatlari va malakalariga asoslangan bo'lib, doimiy ravishda o'rgatib boriladi. Kurs uchun tanlangan mavzular asosan hayotdagi kundalik holatlar bilan bog'liq va biz uchun muhim bo'lgan vaziyatlarda juda muhim bo'lgan tanlangan mavzular qamrab olingan. Uzlaksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartidagi "Chet tillar bo'yicha ta'limni barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar"ga muvofiq oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'lmagan fakultetlari bitiruvchilari ingliz nemis tili bo'yicha A1,A2-B1 va undan yuqori darajalarni yegallashlari belgilab berilgan. Ingliz, nemis tili kursi mazmun-mohiyatiga ko'ra umumiy (akademik) til ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan, talabalarining bo'lg'usi kasbiy faoliyatlarida foydalanadigan til kompetensiyalarini rivojlantirishga moslashtirilgan. Mustaqil ta'lim talabalarda tildan erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini egallash motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu ingliz, nemis tili kursi „Ingliz nemis tili“ fanini o'qitish davrida talabalarining umumiy, akademik va kasbga yo'naltirilgan til ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ingliz nemis tilni o'rganishning mustaqil muloqot (A1,A2-B1 va undan yuqori) darajalari talabalarda ko'proq akademik va kasbga yo'naltirilgan til ko'nikmalarini rivojlantirishni taqozo etadi.	6	1	

5	O'EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - Mustaqillik yillarida mamlakatimiz bosib o'tgan tarixiy yo'lining mazmun-mohiyatini, O'zbekistonning eng yangi tarixida amalga oshirilgan o'zgarishlarning ahamiyatini; - Zamonaviy jarayonlarda O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integrasiyasi, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indeksdagi o'rni va nufuzini ortib borishi kabi jaraenlarni tarixiylik va xolislik nuqtai nazaridan bilishi kerak; O'zbekistonning yeng yangi tarixi muammolarini o'rganish, duneqarashni mustahkamlashda milliy mustaqillik g'oyasini qo'llay bilish, atrofida sodir bo'laetgan jaraenlarga o'z munosabatini bildiradi olish, jamiyat va inson duneqarashi rivojida tarix fanining o'rni anglash va bugungi kunda sodir bo'laetgan voqealarning tarixdagi muhim voqealar bilan bog'liqligini bilish ko'nikmalariga yega bo'lishi kerak.	4	1	
6	AKKK1105	Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik	Mazkur fan fanlar bo'yicha mustaqil ta'limga tayyorgarlik jarayonlarida, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishi bajarish jarayonida o'rganib chiqilgan ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, statistik, tizim-tahlil kabi tadqiqot usullari orqali ma'lum bir iqtisodiy jarayonni tadqiq qilish va uning kelajak holatini ilmiy prognozlash, ilmiy tadqiqot ishlari va statistik hujjatlar bilan ishlash ko'nikmalarining shakllantirilganligi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalari haqidagi umumiy tushunchalari, ilmiy mushohada qila olish va yangi g'oyalar shakllantira olish qobiliyati, ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish mazmuni bilan tanishganligi, tadqiqot natijalarini tahlil qila olish qobiliyatining mavjudligi, fanning ilmiy va ta'limiy xususiyatlarini o'zlashtirish jarayonida o'zlashtirgan bilimlari va malakalarini aniqlashga yo'naltirilgan masalalarni qamrab olgan.	5	1	
1-bosqich 2-semestr: Majburiy fanlar						
7	IQN11210	Iqtisodiyot nazariyasi 1,2	Ushbu fan iqtisodiyotning asosiy fundamenti bo'lib, u birinchi kursning birinchi semestrda o'qitiladi. Iqtisodiyot nazariyasi fanining maqsadi iqtisodiyotga kirish, bozorning vazifalarining amal qilishini o'rganishni o'qitishga qaratilgan. Fanning tarkibini tushunish tadbirkorlik qarorlarini qabul qilish, iqtisodiy siyosatni tushunish va ishlab chiqish, umuman olganda zamonaviy iqtisodiy faoliyatni o'rganish kabi jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Iqtisodiyot nazariyasi fani quyidagi tarkibiy tuzilmadan iborat: Iqtisodiyot faniga kirish.	5	2	

			O'quv dasturining birinchi qismida asosiy iqtisodiy muammo, ishlab chiqarish omillari, ishlab chiqarish imkoniyatlari qiymati va ishlab chiqarish imkoniyatlari yegri chiziqlarini o'z ichiga olgan fundamental g'oyalar va tushunchalar keltirilgan. Iqtisodiy resurslarning taqsimlanishi Bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslarni taqsimlashning asosiy tamoyillari narx mexanizmi orqali ko'rib chiqiladi. Talab va taklifning bozor kuchlari, bozor muvozanati va nomutanosiblik, yegiluvchanlik ushbu bo'limning asosini tashkil yetadi. Mikroiqtisodiy qaror qabul qilinishi. Mikroiqtisodiyot o'rganishning muhim sohasidir va bu yerda asosiy asosiy qaror qabul qiladiganlar: banklar, uy xo'jaliklari, ishchi kuchi, kasaba uyushmalari va tadbirkorlarning roli orqali amalga oshiriladi. Davlat va makroiqtisodiyot. Davlatlar turli xil makroiqtisodiy maqsadlarga yega va ko'pincha ularga yerishish uchun qo'llaniladigan choralarni tanlash o'rtasida ziddiyatlar yuzaga keladi. O'zgarishlarning sabablari va oqibatlari va tegishli siyosatlarini ko'rib chiqish			
8	AMAT11210	Amaliy matematika 1,2	Ushbu kursda iqtisodiyotning barcha yonalishlarida qo'llaniladigan matematik tushunchalarning asoslari o'rganiladi. Bizga ma'lumki iqtisodiyotdagi masalalar avval matematika tiliga so'ngra matematik tildan yesa algebra tiliga o'giriladi. Natijada iqtisodiy masalalarni yechish uchun ularni algoritmlari yaratiladi. Iqtisoddagi masalalarni yechishda zamonaviy usullardan biri bu "machine learning" bo'lib, asosan katta hajmdagi ma'lumotlar omborini tahlil qilishda "Python" dasturlash tilining "numpy", "pandas", "matplotlib", "sklearn" kutubhonalaridan foydalaniladi. Bu kutubhonalar chiziqli algebra, analitik geometriya, matematik analiz, yehtimollar nazariyasi va matematik statistika tushunchalari asosida yaratilgan. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilishda "Stata" dasturiy paketi haqida ham huddi shunday fikrlarni bildirish mumkin. Kurs chiziqli algebra, analitik geometriya, matematik analiz, yehtimollar nazariysi va matematik statistika bo'limlaridan iboratdir. Chiziqli algebra qismi matrisalar nazariyasidan boshlanib vector fazo tushunchalarigacha bo'lgan qismni o'z ichiga oladi. Matematik analiz qismi funksiyalardan boshlab, differensial tenglamalar kursini ham o'z ichiga oladi. Hodisalar yehtimolliigi, tasodifiy miqdorlar va statistik ma'lumotlarni tahlil qilishga oid bo'lgan masalalar yehtimollar nazariyasi va matematik statistika qismida mujassam bo'lgan.	5	2	

9	XT21204	Xorijiy til 2 (ingliz nemis)	Xorijiy til 2 (ingliz nemis)kursining maqsadi talabalarga chet tilida malaka va muomala ko'nikmalarini berish, ularning bugungi global madaniyat dunyosini hisobga olgan holda o'zlarining kasbiy va ilmiy sohalarida samarali ishlashlariga imkon berishdir. Ushbu daraja quyidagi ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan: chet tili bilan aloqa qilish kompetensiyasi, lingvistik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, sotsial-madaniy kompetensiya, ijtimoiy o'zaro ta'sir kompetensiyasi va pragmatik kompetensiya hamda og'zaki va yozma nutqni o'stirish ko'nikmalari. Ushbu ingliz nemis tili kursi 1-2 semestrda rejalashtirilgan va "Chet tillarni bilishning umumyevropa kompetensiyasining tinglash, o'qish, yozish va gapirish kompetensiyalarini baholash (CEFR) tizimi" til o'rganish standartlariga muvofiq nemis tilida A2-B2 darjada ingliz, nemis tilini o'rganish uchun mo'ljallangan. Kurs nemis tili tamoyillari va kommunikativ, interaktiv ko'nikmalar yondashuvlari, o'quv jarayoni uchun umumiy bo'lgan grammatik mavzular, o'xshash sintaktik hodisalar, tinglash, yozish, o'qish va gapirish qobiliyatlari va malakalariga asoslangan bo'lib, doimiy ravishda o'rgatib boriladi. Kurs uchun tanlangan mavzular asosan hayotdagi kundalik holatlar bilan bog'liq va biz uchun muhim bo'lgan vaziyatlarda juda muhim bo'lgan tanlangan mavzular qamrab olingan. Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartidagi "Chet tillar bo'yicha ta'limni barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar"ga muvofiq oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'lmagan fakultetlari bitiruvchilari ingliz nemis tili bo'yicha A2-B2 va undan yuqori darajalarni egallashlari belgilab berilgan. Ingliz nemis tili kursi mazmun-mohiyatiga ko'ra umumiy (akademik) til ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan, talabalarining bo'lg'usi kasbiy faoliyatlarida foydalanadigan til kompetensiyalarini rivojlantirishga moslashtirilgan. Mustaqil ta'lim talabalarda tildan erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini egallash motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu ingliz nemis tili kursi „Ingliz nemis tili“ fanini o'qitish davrida talabalarining umumiy, akademik va kasbga yo'naltirilgan til ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ingliz nemis tilni o'rganishning mustaqil muloqot (A2-B2 va undan yuqori) darajalari talabalarda ko'proq akademik va kasbga yo'naltirilgan til ko'nikmalarini rivojlantirishni taqozo etadi. Talabalar aniq va mavhum mavzulardagi murakkab matnlarning asosiy g'oyalarini, shu jumladan o'zlarining ixtisoslik sohasidagi munozaralarni tushunishlari kerak. Ular ravonlik va spontanlik darajasi bilan ta'sir o'tkazishlari mumkin, bu esa ona tilida so'zlashuvchilar bilan har qanday vaziyatda zo'riqshsiz muntazam ravishda	4	2	
---	---------	---------------------------------	--	---	---	--

			o‘zaro aloqada bo‘lishni ta‘minlaydi. Ular turli mavzular bo‘yicha aniq, batafsil matnni tayyorlashlari va turli xil variantlarning afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olgan holda dolzarb masala bo‘yicha nuqtai nazarini tushuntirish ko‘nikmalarini egallaydilar.			
10	O‘RT1204	O‘zbek (rus) tili	"O‘zbek (rus) tili" fani barcha iqtisodiy mutaxassisliklar bo'yicha birinchi kursga mo'ljallangan bo'lib (1-2 semestr) , egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka , madaniy dunyoqarashning zaruriy me'yorni asoslovchi fanlardan biridir. "O‘zbek tili" kursining asosiy maqsadi : Mustaqil davlatimizda o‘zbek tilining ijtimoiy mavqeyi tobora ortib borayotganligi, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlo qoidalarining joriy etilganligi, ish yuritishda to‘liq davlat tiliga o‘tilayotganligi barcha mutaxassislarning millatidan qat’iy nazar, o‘zbek tilini puxta egallashlarini taqozo etmoqda. Shuningdek, uzluksiz ta‘limning barcha bosqichlarida, jumladan, oliy o‘quv yurtlarining o‘qish boshqa tilda olib borilayotgan guruhlarda ham o‘zbek tilini o‘rganish yo‘lga qoy‘ildi. Shunga ko‘ra, oliy o‘quv dargohlarida o‘zbek tili davlat tili sifatida o‘rganiladi. "Rus tili" fani barcha iqtisodiy mutaxassisliklar bo‘yicha birinchi kursga mo'ljallangan bo'lib (1-2 semestr) , egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka , madaniy dunyoqarashning zaruriy me'yorni asoslovchi umumslubiy fanlardan biridir. "Rus tili" kursining asosiy maqsadi : - jamiyatdagi iqtisodiy qonunlarni bilish va tushunish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni, mamlakatni demokratlashtirish mohiyatini tushunadigan mutaxassisning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga, -bozor tamoyillariga asoslangan iqtisodiy islohotlarni rus tilining yordami bilan amalga oshirish , mamlakatni demokratlashtirish hamda dunyo hamjamiyatdagi iqtisodiy qonunlarni bilish va tushunishga, -mafkuraviy yo‘nalishga, ma‘naviy dunyoqarashning kengayishiga, iqtisodiy madaniyatning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishga; -eng muhim umumiy ta‘lim ko‘nikmalarini va universal ta‘lim faoliyatini egallashga qaratilgan bo‘lib, yozish, o‘qish, nutqni to‘liq idrok yetish, rus tilida erkin, to‘g‘ri va ifodali gapirish va yozishni, kasbiy faoliyatning turli sohalarida dolzarb muammolarini hal eta oladigan, turli xil aloqa vaziyatlarida tildan foydalanishni, nutq odob-axloq meyorlariga rioya qilishga va rivojlantirishga qaratilgan.	4	2	
11	DIN1204	Dinshunoslik	“Dinshunoslik” kursini o'qitishdan 1-maqсад talabalarni din va diniy ta'limotlarning diniy talqinidan tashqari ilmiy tushuncha, ta'limot, nazariya, falsafiy xulosalar bilan	4	2	

			qurollantirishdan iborat. Buning uchun hozirgi zamon fani yutuqlari asosida dinning kelib chiqishi, evolyusiyasi, hozirgi xolati, insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotida tutgan o'rni haqida ilmiy-nazariy ta'limotlar bilan qurollantirish ko'zda tutiladi. 2-maqсад O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda islom yagona hukmron dinga aylanganligi, halqimiz turmush tarziga chuqur kirib borganligini hisobga olib, uning shaxs, oila, jamiyat hayotida tutgan o'rni, madaniyat va ma'naviyat, san'at va adabiyotni boyitishga qo'shgan xissasi xususida talabalarni ilmiy-falsafiy bilimlar asosida fikr yuritishga o'rgatilishidan iborat. 3-maqсад talabalarda ibtidoiy dinlardan tortib to jahon dinlarigacha bo'lgan dinlarning shakllari, ta'limotlari, yo'nalish va oqimlari mazhab va sektalari haqida umumiy ilmiy tasavvur hosil qilish orqali o'zlari mustaqil falsafiy xulosalar chiqara olish malakasini hosil qilishdan iborat			
12	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	Ushbu fan davr bilan, sport hayoti va sog'lom turmush bilan uzviy bog'liq. Sport va sog'lom turmush hayotidagi tub burilishlar, jismoniy rivojlanish, tayyorgarlikni o'stirishga oid zamonaviy nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini oshirishga yordam beruvchi vosita va metodlarni, o'z – o'zini jismoniy mukamallashtirish, ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish va ularni foydalanishga o'rgatadi va u to'g'risida bilim berishdir. «Jismoniy tarbiya va sport» barcha yo'nalishlar uchun 1 kurslarda 1-2-semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish uchun o'quv rejasida rejalashtirilgan tabiiy fanlar asosida tuzildi.	4	2	
13	FAL1204	Falsafa	“Falsafa” fani insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan biri bo'lib, olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo'qliq, kabi ko'plab muammolar haqida bahs yuritadi. Falsafa dunyoqarashning umumlashgan tizimini yaratish va unda inson o'rnini ko'rsatishga qaratilgan fandir, u insonning dunyoga bo'lgan bilish, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy, diniy, estetik va boshqa munosabatlarini shakllantirishga ko'maklashadi. Ushbu fan metodologik ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, uning mohiyatini o'rganish jarayonida talabalarda boshqa fanlardan olgan bilimlarini umumlashtirish, o'zining falsafiy mushohada qilish qobiliyatini rivojlantirish, olam haqida yaxlit tasavvur hosil qilish va umumiy madaniy darajasini yuksaltirish imkoniyati paydo bo'ladi.	4	2	
2-bosqich 3-semestr: Majburiy fanlar						
14	MA13410	Moliya asoslari 1,2	Modulning asosiy maqsadi “Moliya asoslari 1,2” fanini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad – kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib etishadigan talabalar uchun moliya munosabatlarini tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi	5	3	

			moliyaviy siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘nikma va malakalar shakllantirishdir. Moliya jamiyat iqtisodiyotidagi samaradorlikni rag‘batlantirish, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanishi bilan dolzarb ahamiyatga ega.			
15	STAT1305	Statistika	Fanni o‘qitishdan madsad - talabalarda statistikaning metoda va amaliyoti sohasida chukur kasbiy bilimlar va zaruriy o‘quv malakasini shakllantirishdir. Fanning asosiy vazifalari: - statistikaning predmeta va metoda, uning adamiyati va roli hao‘ida chuqur bilimga va tasavvurga ega bulish; -statistikaning nazariy, uslubiy va amaliy masalalarini har taraflama o‘rganish; -Uzbekistonda davlat statastakasining tashkil etilishi, uning «Davlat statastikasi haqida»gi Konundan kelib chiqadagan vazifalari va xududlarini bilish; - -statistik kuzatishning mohiyati, turlari, dasturi - uslubiy va tashkiliy masalalarini o‘rganish; -statistik kuzatash ma’lumotlarini svodkalash va guruhlash damda uning natijalarini statistik jadvallarda ifodalay olish; -taqsimot qatorlarini tuzish va tahlil dilish usullarini egallash; - statistik kursatkichlar, ularning turlari va shakllari, taqqoslash yullari,. makro va mikro iqtisodiy kursatkichlar haqida chukur tasavvurga ega bulish; -tanlanma kuzatishning modiyati, . nazariy va amaliy masalalari, tanlanmaning reprezentativligini badolash yullarini bilish, ilmiy va tajribaviy gipotezalarni statistik tekshirish va yechimlarni olish usullarini egallash; -bozor munuosabatlari urtasidagi sabab-oqibat boglanishlarini ochish uchun korrelyatsion-regression tahlilni qo‘llay olish; -dinamika datorlarini tuzish va tahlil qilish usulubiyatani bilish; statistika amaliyotida qo‘llaniladigan iqtisodiy indekslarni hisoblash tugrisida tasavvurga ega bulishni ta‘minlash, hamda ular asosida xulosalar chidarish buyicha ko‘nikmalar hosil qilishdan iborat. Ushbu madsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy kunikmalalar, idtisodiy hodasa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoharashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.	5	3	
16	MAK1305	Makroiqtisodiy ot	“Makroiqtisodiyot” fani talabalarni makroiqtisodiy kategoriyalar, makroiqtisodiy muammolarning namoyon bo‘lishi shakllari va sabablari, iqtisodiy jarayonlarni makroiqtisodiy modellar vositasida tahlil yetish, makroiqtisodiy siyosat maqsadlari va vositalari, ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy siyosat yuritish xususiyatlari to‘g‘risida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish hamda makroiqtisodiy	5	3	

			ko'rsatkichlarni hisoblash, makroiqtisodiy konsepsiya va modellardan foydalangan holda iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, makroiqtisodiy siyosat natijalarini aniqlash usullarini o'rgatish vazifalarini bajaradi. Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba: – makroiqtisodiyot fanining predmetini, obekti hamda makroiqtisodiy agentlar; – makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mohiyati va ularni hisoblash shartlari; – asosiy makroiqtisodiy modellar va ularda iqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosat natijalarini aks yettirish; – tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanatga yerishish mexanizmining mohiyati; – pulga talab, pul taklifi va pul bozorida muvozanatga ta'sir yetuvchi omillar; – byudjet-soliq va pul – kredit siyosatining maqsadlari, vositalari, ko'rinishlari; – iqtisodiy o'sishning mohiyati, o'lchanishi, omillari va modellari; – tashqi savdo siyosatining nazariy asoslari va vositalari; – mamlakat to'lov balansining tuzilishi, makroiqtisodiy ahamiyati va uni tartibga solish usullari; – valyuta kursining mohiyati, makroiqtisodiy ahamiyati, uni belgilovchi omillar va barqarorligini ta'minlash shartlari; – ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish xususiyatlari haqida tasavvurga yega bo'lishi; – iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda makroiqtisodiy modellarni qo'llashni; – makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishni; – makroiqtisodiy siyosatning ijobiy va salbiy oqibatlariga baho berishni; – makroiqtisodiy siyosatning natijalarini prognoz qilishni bilishi va ulardan foydalana olish; – makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash; – asosiy makroiqtisodiy modellarning o'zgaruvchilarini aniqlash va tenglamalarini tuzish; – tovarlar va xizmatlar bozorida qisqa va uzoq muddatli muvozanatni ta'minlash mexanizmini tushuntirib berish; – pul bozorida muvozanat yuzaga kelishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; – makroiqtisodiy siyosatning iqtisodiy jarayonlar va alohida ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatishi qonuniyatlari aniqlash; – turli makroiqtisodiy vaziyatlarda byudjet-soliq yoki pul-kredit siyosatini qo'llash hamda o'zaro muvofiqlashtirish shartlarini tushuntirib berish; 4 – tashqi savdo siyosati va valyuta kursini tartibga solish orqali to'lov balansi holatiga, yalpi talab va yalpi taklif hajmlariga ta'sir ko'rsatish usullarini tavsiflab berish; – ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlarini, milliy va jahon iqtisodiyoti darajasida bozor mexanizmi qanday amal qilishini izohlab berish ko'nikmalariga yega bo'lishi kerak.			
17	BH1305	Buxgalteriya hisobi	Fanni o'qitishdan maqsad - buxgalteriya hisobining obektlari va subektlari, schyotlar tizimi va ikki yoqlama yozuv, xo'jalik muammolarini hisobga olish, dastlabki hujjatlarni yuritish, amaldagi soliqlarning mohiyati, zarurligi va	5	3	

			funksiyalari, soliq tizimi va soliqlarning guruhlanishi, qishloq xo'jalik korxonalarining soliq tizimi, soliqqa tortish usullari haqida zarur bo'lgan bilimlarni berish. Fanning vazifalari - talabalarga buxgalteriya hisobining nazariy asoslari, qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobini tashkil yetish va yuritish, buxgalteriya balansi uning tuzilishini, xo'jalik jarayonlarini hisobga olish va ularning natijalari asosida hisobot tuzish to'g'risidagi bilimlarni, soliq tizimi va soliqlarning guruhlanishi, soliq yelementlari va qishloq xo'jalik korxonalari to'laydigan soliqlar hamda ularni hisoblash tartibini, soliq hisobotlarini topshirish va to'lash muddatlarini o'rgatishdan iborat.			
18	MTI1305	Moliyaviy tizimlar va inqirozlar	Ushbu fan talabalarda moliyaviy resurslar fondlarini shakllantirish hamda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish maqsadlariga erishishda ulardan samarali foydalanish bo'yicha bilimlarini oshirish, shuningdek mamlakat moliya tizimi rivojlanish qonuniyatlarini bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo'lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Talaba pulning vaqt qiymatini tushunish va amaliyotda qo'llay olish – talabalar foiz hisoblash, hozirgi va kelajakdagi qiymatni aniqlash, annuitet va perpetuitetlarni baholashni, pulning vaqt qiymatini tushunish va amaliyotda qo'llay olish – talabalar foiz hisoblash, hozirgi va kelajakdagi qiymatni aniqlash, annuitet va perpetuitetlarni baholashni, kapital aktivlarini baholash modeli (CAPM)ni tushunish – risk va kutilyotgan daromad o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish va baholashni o'rganadilar. Aksiylar va boshqa moliyaviy aktivlarni baholay olish – talabalar kompaniya qiymatini aniqlashda foydalanuvchi asosiy tahlil usullarini qo'llay oladilar. Arbitraj baholash modeli (APT) bilan tanishish – bozordagi narx farqlaridan foydalanish orqali risklarni kamaytirish va foyda olish imkoniyatlarini aniqlay oladilar.	5	3	
2-bosqich 3-semestr: Tanlov fanlar (5 ECTS)						
19	TIZK2305	Tabiat ilmining zamonaviy konsepsiyasi	Tabiatda million-million turli-tuman tirik organizmlar yashaydi, bu organizmlar bir-birlari bilangina emas, balki ularni o'rab turgan notirik tabiat qismlari (havo, tuproq, suv, iqlim va hokazo) bilan ham uzviy bog'liq holda hayot kechiradilar. Har bir o'simlik, hayvon, mikroorganizmlar hayotiga quyosh, havo, suv, tuproq va boshqa ko'pgina unsurlar doimo ta'sir qilib turadi. Insoniyat ham tabiatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, u o'zining tirikligi uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni tabiatdan oladi. Demak, inson tabiatning rivojlanish qonunlarini, o'simliklar va hayvonlar	5	3	

			bilan notirik tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni bilib olgandagina uning bitmas-tuganmas boyliklaridan to'g'ri foydalana oladi. Shu sababli bo'lajak mutaxassislar tafakkuriga tabiatni sevis, uni e'zozlash, tabiiy (yer, suv va biologik) resurslardan oqilona foydalanish, yerlarning sho'rlanishini oldini olish, tabiatni o'zgartirishdagi foydali va zararli tomonlarni singdirish zarur. Agar tabiatga nisbatan xo'jasizlik qilinganda bu qanday salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini Orol dengizi muammosi misolida yaqqol ko'rib turibmiz. Ana shunday ko'ngilsiz hodisalarning oldini olishni, tabiatga zarar keltirmasdan undan oqilona foydalanish yo'llarini talabalar Tabiat ilmining zamonaviy konsepsiyasi fanida o'rganadilar.			
20	IOEM2305	Iqlim o'zgarishi va ekologik moslashuv	Odamlar, atrof-muhit muammolari, ularning sabablari va barqarorligi. Ekologik fon: biosfera, ekotizimlar va uning tarkibiy qismlari, energiya oqimi va moddaning aylanishi. Resurslar va barqaror resurslarni boshqarish. Tabiatni muhofaza qilish. Suv va quruqlik tizimlarida bioxilma-xillik. Atrof muhit sifati: suv, havo va tuproq ifloslanishini baholash va yumshatish. Qishloq xo'jaligining bioxilma-xillik, tuproq eroziyasi, pestitsidlar va ozuqaviy moddalarga ta'siri. Qattiq va xavfli chiqindilar. Ekologik muammolar: iqlim o'zgarishi, atmosferaning dimiqishi va havoning ifloslanishi. Atrof-muhit iqtisodiyoti va siyosati.	5	3	
21	DTIY2305	Davlat tilida ish yuritish	"Davlat tilida ish yuritish" fani talabalarni davlat tilida ish yuritishning nazariy asoslari va amaliy qoidalari bilan tanishtirish, rasmiy hujjatlarni o'zbek tilida savodli, me'yoriy talablar asosida tuzish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Fan davlat tilining huquqiy asoslarini o'rgatish, rasmiy-idoraviy hujjatlar turlari va ularning tuzilishini o'zlashtirish, adabiy me'yor va uslubiy talablarni amaliyotda qo'llashni ta'minlaydi. Shu orqali talabalar kelajak kasbiy faoliyatida hujjatlarni to'g'ri, aniq va rasmiy tarzda yurita oladigan, milliy hujjatchilik madaniyatiga ega bo'lgan mutaxassis sifatida shakllanadi.	5	3	
2-bosqich 4-semestr: Majburiy fanlar						
22	MA13410	Moliya asoslari 1,2	«Moliya asoslari» fanini o'qitishning maqsadi - kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib etishadigan talabalar uchun moliya munosabatlarini tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi moliyaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ko'nikma va malakalar shakllantirishdir	5	4	
23	PM1405	Personal moliya	Ushbu kurs iqtisodiyot va shaxsiy moliya tushunchalarini uyg'unlashtirib, barcha yo'nalishdagi talabalarga iqtisodiy voqealarning oqibatlarini yaxshiroq tushunish va moliyaviy qarorlarni ongli ravishda qabul qilishga yordam beradi. Shaxsiy moliya fani talabalarga iqtisodiy va moliyaviy savodxonlikni egallash uchun zarur	5	4	

			vositalarni taqdim etadi. Shuningdek, kurs moliyaviy qarorlar qabul qilishning murakkabliklarini tushunishga yordam beradigan amaliy misollar majmuasini ham taklif etadi. Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan talabalar qo'shimcha ta'limning pul qiymatini hisoblash, istiqbolli biznes loyihalarini baholash, moliyaviy qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritish va ularni baholash, hamda o'z kelajaklarini rejalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.			
24	EKMET1405	Ekonometrika	Talabalarning nazariy va amaliy iqtisodiy masalalarni hal qilishda ishlatiladigan matematik apparatning asoslari bilan tanishtirish, mantiqiy fikr yuritish qobiliyatini oshirish, ilmiy adabiyatlarni mustaqil o'rganishga odatlantirish va amaliy iqtisodiy masalalarni matematik usullar bilan yechish hamda bu mavjud iqtisodiy obyektlarni modellashtirish va miqdoriy tahlil qilishning usullarini ishlab chiqishdan iborat. Kurs yakunida talaba quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi: matematik analiz, differensial tenglamalar, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika mavzulariga oid masalalarni yecha bilish; iqtisodiy masalalarga mos funksiyalarni yaratish va uni tahlil qilish; iqtisodiyotda ehtimollar nazariyasi elementlarini qo'llay bilish; iqtisodiy munosabatlar va jarayonlarni modellarini yaratish ko'nikmalarini shakllantirish.	5	4	
25	INV1405	Investitsiyalar	"Investitsiya" fanida investitsiya faoliyatini tahlil qilish va moliyalashtirish o'rganiladi. Xususan, investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyati, investitsiya faoliyati va investitsiya siyosati, iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli, investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya muhitining o'rni, investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini baholash, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va usullari, investitsiyalarni moliyalashtirishda moliya bozorining ahamiyati, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning noan'anaviy usullari, investitsiya risklari va ularni pasaytirish yo'llari kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, investitsiyalarni moliyaviy tahlil qilish va kompaniyani baholash bo'yicha zarur bilimlarni beradi. Fanning asosiy jihati – investitsiya faoliyatining nazariy va amaliy tomonlarini o'rganish, talabalarda investitsiya faoliyatini tahlil va tadqiq qilishdir. Shu sababli darslarda kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni shakllantirishda foydalanish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar batafsil yoritilgan. Investitsiya faoliyatini shakllantirish, moliyalashtirishda foydalanish va tushunish hamda tahlil qilish oson bo'lgan usullar bilan o'rganiladi. investitsiyalar to'liq o'rganilgan, ammo investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari ham mavjud.	5	4	
26	PNMB1405	Portfel nazariyasi va	Ushbu kurs portfelni boshqarishni nazariy va amaliy qo'llanma nuqtai nazaridan o'rganadi. Fanning akademik qismi portfel nazariyasi va diversifikatsiya orqali	5	4	

		moliyaviy bozorlar	riskni kamaytirish masalalariga e'tibor qaratadi. Shuningdek, bu modelarni amaliyotga tatbiq qilishda mutaxassislar duch keladigan kuchli tomonlar va qiyinchiliklar haqida so'z yuritiladi. Oxir-oqibat, amaliyotchilar risk va noaniqliklar hukmron bo'lgan muhitda qarorlar qabul qilishlari kerak. Investitsiya boshqaruvi sohasining maqsadi — boshqaruvchilarga eng past xarajatlar bilan o'z investitsiya maqsadlariga erishishga imkon beradigan tizimni taqdim etishdir, bu esa muvaffaqiyatsizlik xavfini o'lchab va hisoblangan tarzda qabul qilishni talab qiladi. Portfelni optimallashtirish va risklarni boshqarishning miqdoriy usullari investitsiya boshqaruvi jarayonining muhim elementlaridir. Bundan tashqari, ular CFA sertifikatlash dasturining juda muhim tarkibiy qismidir			
2-bosqich 4-semestr: Tanlov fanlar (5 ECTS)						
27	TB2405	Tijorat banklari	Kurs tijorat bank operatsiyalari evolyutsiyasi va rivojlanishini, tartibga solish va nazoratni to'liq qamrab oladi. Shuningdek, banklar doimo o'zgarib turadigan moliyaviy muhitda muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradigan vositalar, uslublar va strategiyalarni taqdim etadi. Aktiv va passivlarni boshqarishni intensiv o'rganishdan tashqari, kurs kreditlar, foiz stavkalari, valyuta va kapitalning etarliligi xatarlarini baholash va minimallashtirishga qaratilgan. Kurs bank ishida tavakkalchilikni aniqlashni o'rganish bilan yakunlanadi.	5	4	
28	MH2305	Moliya huquqi	Kurs o'z ichiga asosiy moliyaviy-huquqiy tushunchalarni, kategoriyalarni, moliyaviy nazorat, byudjet huquqi, davlat daromadlari va xarajatlarning huquqiy rejimi, soliq huquqi, bank faoliyati, pul muomalasi, hisob-kitoblar va valyuta operatsiyalari bilan bog'liq masalalarni tartibga soluvchi amaldagi moliyaviy qonunchilikni o'quv materiallari o'rganiladi. Fanning maqsadi – o'quvchilarda moliya huquqi normalarini qo'llash sohasida nazariy bilimlar va amaliy ko'nimalarni shakllantirishdan iborat.	5	4	
29	MANAG2305	Menejment	O'quv kursida talabalar ilmiy fikr shakllanishini boshqarish asoslarini o'rganadilar va menejment jarayoni funktsiyalari va ulardan turli tashkilotlarda foydalanish to'g'risida tushuncha olishadi. Talabalar tashkilotni tashkil etish va uning tuzilishining asosiy tushunchalarini tahlil qilishadi. Kurs qarorlarni qabul qilish va boshqarish uslublari haqida tushunchani shakllantiradi. Talabalar xodimlarni boshqarishning turli jihatlarini va xodimlarni boshqarish uslublari va uslublari bo'yicha bilimlarga ega bo'ladilar. Kurs shuningdek axloq va ijtimoiy javobgarlik to'g'risida tushunchalarni shakllantiradi.	5	4	
3-bosqich 5-semestr: Majburiy fanlar						
30	KM1505	Korporativ moliya	Fanning maqsadi - yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib yetishadigan talabalar uchun korporatsiyalarni boshqarish usullari va ularning amaldagi tizimi,	5	5	

			korporatsiyalarni boshqarishning hozirgi zamon rivojlanish tendensiyalari, korporativ boshqaruv andozalarini joriy etish masalalari ko'rib o'tishdir. Korporativ tushunchasining iqtisodiy mazmuni va mohiyati, O'zbekiston Respublikasida mulk shakllarini o'zgartirish jarayonlarini amalga oshirishda kelib chiqadigan nizolar va ularning turlari, shuningdek, ularni bartaraf etish masalalari o'rganiladi. Fanning vazifasi – talabalarga korporativ moliyani tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi moliyaviy siyosatining asosiy yo'nalishlarini ko'rsatish, moliya tizimi bo'g'inlarini va ular orasidagi munosabatlarni o'rgatishdan iborat.			
31	SST1505	Soliqlar va soliqqa tortish	“Soliqlar va soliqqa tortish” fani talabalarni soliq va soliqqa tortish tizimida mavjud muammolar, soliq rejimlari tartibi va soliq mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish, soliqlarni hisoblash va undirish tartibi amaliy qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan bo'lib, bu fan uchinchi kursning ikkinchi semestrda o'qitilishi rejalashtirilgan. Kurs mazmuni bugungi kunda milliy soliq tizimining hozirgi holati va ularda soliq to'lovchilar bilan davlat soliq organlari o'rtasidagi jarayonlarni faollashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish asosiy maqsad qilib olingan. Fanning asosiy jihati - soliqqa tortishning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganish, talabalarda soliqlarni hisoblash va undirish tartibini amaliy qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilishdir. Fanda soliqlarning iqtisodiy mohiyati va soliqqa tortishning printsiplari, O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasining o'ziga xos xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlari, milliy soliq tizimining mohiyati, zarurligi, soliqlarning belgilari va funktsiyalari, soliq stavkalarini tabaqalashtirish, soliq imtiyozlari va preferentsiyalari, yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar, ularni hisoblash va byudjetga undirish mexanizmi, jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning turlari, ularni hisoblash va byudjetga undirish mexanizmini o'rganish, soliqlarni hisoblash usullarini qo'llash, rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan foydalanish masalalari o'rganiladi.	5	5	
32	XM1505	Xalqaro moliya	“Xalqaro moliya” fani 5-semestrda o'qitilishi rejalashtirilgan. Fanni o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad korporativ moliya fanida tanishtirilgan paritet shartlarini takrorlagan holda, spot kurs, forvard kurs, inflyasiya va foiz stavkalari o'rtasidagi muhim bog'liqliklar tasvirlanadi. Shuningdek, kurs davomida mamlakat risklari, xorijiy valyuta bozorlari, xorijiy valyuta derivativlari va xalqaro kapital bozorlari masalalari batafsil o'rganiladi.	5	5	

			Kurs 7 ta mavzuni o'z ichiga qamrab oladi. Birinchi mavzuda spot kurs bayon etiladi. Ikkinchi mavzuda forward kurs yoritiladi. Uchinchi mavzuda inflyasiya va foiz stavkalari o'rtasidagi muhim bog'liqliklar o'rganiladi. To'rtinchi mavzuda mamlakat risklariga qaratiladi. Beshinchi mavzuda xorijiy valyuta bozorlari o'rganiladi. Oltinchi mavzuda xorijiy valyuta derivativlari yoritiladi. Yettinchi mavzuda va xalqaro kapital bozorlari o'rganiladi.			
33	DM15610	Davlat moliyasi 1,2	“Davlat moliyasi” fanining predmeti davlatning markazlashgan pul fondlari va boshqa markazlashgan moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog‘liq bo‘lgan tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy munosabatlar tashkil qiladi. Fanni o‘qitishdan maqsad - davlat moliya tizimining tuzilishi va faoliyati yuzasidan nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishdan iborat.	5	5	
3-bosqich 5-semestr: Tanlov fanlar (5 ECTS)						
34	ITITE2505	Ilmiy – tadqiqot ishini tashkil etish	Tadqiqot ishlarini tashkillashtirish va rejalashtirish fanini o‘qitishdan maqsad - tadqiqot ishlarini tashkillashtirish va rejalashtirish fani ilmiy izlanishlarni qonuniyatlari, usullari, ma’lumot yig‘ish, ularni guruhlash, statistik tahlil qilish, interpretatsiyalash, olingan xaqqoniy, dalillarga asoslangan ma’lumotlarga ko‘ra hulosalar chiqarish va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish. Fanni vazifasi: - ilmiy-tekshirish ilarning mohiyatini, uning dolzarbligini baholashni o‘rgatish; - ilmiy tadqiqot ishlarida axborotlardan foydalanish va ularni qidirishni o‘rgatish; - ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni, tadqiqot maqsadini, vazifalarini belgilashni o‘rgatish; - tadqiqot vazifalarini amalga oshirish uchun tadqiqot usullarini to‘g‘ri tanlashni o‘rgatish; - aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilishga o‘rgatish; - olingan ma’lumotlarni umumlashtirish, tahlil qilish, ilmiy tajribalarga tayyorgarlik ko‘rish va amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini o‘rgatish. Fan bo‘yicha talabalarining bilim ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi. Talaba: – tadqiqot usullari va prinsiplari; aholi salomatligiga ta’sir etuvchi omillarning asosiy mezonlari; – aholi salomatligini o‘rganish uslublari va ko‘rsatkichlari; – statistika bo‘limlari va uning vazifalari, statistik majmua va kuzatuv birliklari, tibbiy-biologik tadqiqot usullari;	5	5	

			– O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash sohasida ta’lim, ilm-fan tizimini isloh qilish yo‘llari, innovatsion g‘oyalarni amaliyotga kiritish bo‘yicha asosiy direktiv hujjatlar, har bir bosqichning maqsad va vazifalari; – klinik epidemiologiya, kasalliklarni tarqalishini o‘rganish va ularni keltirib chiqaradigan omillarni aniqlash, ilmiy tadqiqotda dalillarga asoslangan tibbiyotning o‘rni; – ilmiy tadqiqot ishlarida axborotlardan foydalanish va ularni qidirish manbalari haqida tasavvurga ega bo‘lishi; – fanni rivojlanishning asosiy davrlari va ilmiy-amaliy muammolarini; – ilmiy tadqiqotning asosiy kategoriyalar va tushunchalarini; – ilmiy tadqiqotning muvaffaqiyatli yakunlanishi shartlarini; t – tibbiy - biologik tadqiqot bosqichlarining maqsad va vazifalari; – amaliyotga asoslangan va doimiy olib boriladigan tibbiy-biologik izlanishlarini bilishi va ulardan foydalana olishi; -tibbiy axborot resurslardan tegishli axborotlarni qidirish, ularga tanqidiy yondoshish, isbotlilik darajasini aniqlash; -qo‘yilgan maqsad va vazifalarga ko‘ra adabiyotlarni sharxlash; -tadqiqotni o‘tqazishda qo‘llaniladigan usullarni ishlab chiqish, unda yozma, tahliliy va eksperimental usullarini qo‘llash; -statistik majmua va kuzatuv birliklarini to‘g‘ri tanlash, statistik usullarni qo‘llash; -tibbiy-biologik tadqiqot natijalarini tahlil qilish, uni baholashda o‘rtacha va nisbiy miqdorlarni qo‘llash, ularning ishonchlik darajasini baholash; -ilmiy tadqiqot ishlarida olingan natijalarini adabiyot ma’lumotlari bilan interpretatsiya qilish, yozma va og‘zaki bayon qilish, jadval va grafik ko‘rinishlarda ifoda etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.			
35	BRA2505	Barqaror rivojlanish asoslari	Xalqaro miqyosda tan olingan barqaror rivojlanish maqsadlari hamda barqaror rivojlanish faoliyatining asosiy sohalari: qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, transport, atrof-muhit, energiya ishlab chiqarish va iste’mol qilish, iqtisodiyotni rivojlantirish, ta’lim va jamiyatni shakllantirish to‘g‘risida ma’lumot berishdir. Kurs barqaror rivojlanishni ta’minlashda axborot texnologiyalarining ahamiyatini ko‘rib chiqadi. Talabalarda barqaror rivojlanish tushunchasi va uning maqsadlari haqida tushunchalar berish, jahonda barqaror rivojlanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va ularning mohiyati haqidagi bilimlarni yetkazish. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda AKT larning o‘rnini talabalarga yetkazish.	5	5	

36	HZEM2505	Hozirgi zamon ekologik muammolari	Odamlar, atrof-muhit muammolari, ularning sabablari va barqarorligi. Ekologik fon: biosfera, ekotizimlar va uning tarkibiy qismlari, energiya oqimi va moddaning aylanishi. Resurslar va barqaror resurslarni boshqarish. Tabiatni muhofaza qilish. Suv va quruqlik tizimlarida bioxilma-xillik. Atrof muhit sifati: suv, havo va tuproq ifloslanishini baholash va yumshatish. Qishloq xo'jaligining bioxilma-xillik, tuproq eroziyasi, pestitsidlar va ozuqaviy moddalarga ta'siri. Qattiq va xavfli chiqindilar. Ekologik muammolar: iqlim o'zgarishi, kamayishi va havoning ifloslanishi. Atrof-muhit iqtisodiyoti va siyosati.	5	5	
37	MN2505	Moliyaviy nazorat	Fanning vazifasi talabalarga moliyaviy nazoratni tashkil etishning nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslari haqida bilimlar berish, ularda moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organlar tomonidan nazorat faoliyatini tashkil etish yo'nalishlarini, moliyaviy nazoratni tashkil qilish turlari, shakl va usullarini, davlat va nodavlat moliyaviy nazorat turlarini, rivojlangan davlatlarda moliyaviy nazoratni tashkil etish amaliyotini o'rgatishdan iborat. "Moliyaviy nazorat" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba: - moliyaviy nazoratni nazariy va huquqiy asoslarini o'rgangan bo'lishi va ularni kerakli joylarda qo'llay bilishi; - moliyaviy nazora organlari faoliyatini o'rgangan bo'lishi va tahlil qilishni bilishi; - moliyaviy nazoratga oid ma'lumotlarni to'plash, guruhlash va tahlil qilishni bilishi; - rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy nazorat amaliyotini o'rgangan bo'lishi va tahlil qilishni bilishi; - moliyaviy nazorat shakllari va usullari haqida tasavvurga ega bo'lishi; - iqtisodiy subyektlar moliyaviy faoliyatini tahlil qilishda moliyaviy nazorat usullardan to'g'ri foydalana bilish va topilgan qonunbuzilishlar va kamchiliklarni tahlil qila olish ko'nikmalariga ega bo'lishi; - moliyaviy nazoratni o'tkazishni rejalashtirish; - nazorat natijalarini rasmiylashtirish; - nazorat natijalarini tahlil qilish va chora ko'rish malakalariga ega bo'lishi kerak	5	5	
38	MH2505	Moliyaviy hisobot	"Moliyaviy hisobot" fani xo'jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya va moliyaviy hisobotni ahamiyatini, moliyaviy hisobot shakllarini, moliyaviy hisobotga izohlar, hisob-kitoblar, tushuntirishlar va ularni taqdim etishni qamrab oladi. Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:	5	5	

			– moliyaviy hisobot shakllari, buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, pul oqimlari to'g'risida hisobot, xususiy kapital to'g'risida hisobot, moliyaviy hisobotga izohlar, hisob-kitoblar, tushuntirishlar va ularni taqdim etish, moliyaviy hisobotlar va ichki hisobotlarning ko'rsatkichlari va ularning shakllanishini, ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun zarur ma'lumotlarni moliyaviy va boshqaruv hisobidan hamda hisobotlardan olishni <i>bilishi kerak</i>; – moliyaviy hisobot shakllarini, ya'ni buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, pul oqimlari to'g'risida hisobot, xususiy kapital to'g'risida hisobot, moliyaviy hisobotga izohlar, hisob-kitoblar, tushuntirishlar va ularni taqdim etish bo'yicha <i>ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak</i>; moliyaviy hisobotning nazariy, uslubiy va tashkiliy asoslari, moliyaviy hisobotning boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligini tassavur etish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.			
39	BTM2505	Byudjet tashkilotlari moliyasi	“Byudjet tashkilotlari moliyasi” fanining predmetini byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, davlatning markazlashgan pul fondi bo'lgan davlat byudjetining shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy munosabatlar tashkil qiladi. Fanni o'qitishdan maqsad– talabalarda byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, davlat byudjetining shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi borasida nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish va chuqurlashtirishdan iborat.	5	5	
3-bosqich 6-semestr: Majburiy fanlar						
40	DM15610	Davlat moliyasi 1,2	“Davlat moliyasi” fanining predmeti davlatning markazlashgan pul fondlari va boshqa markazlashgan moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy munosabatlar tashkil qiladi. Fanni o'qitishdan maqsad - davlat moliya tizimining tuzilishi va faoliyati yuzasidan nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishdan iborat.	5	6	
41	MT1605	Moliyaviy texnologiyalar	Ushbu fan fintech kompaniyalarining mohiyati va turli xil operatsion modellariga qaratilgan. Talabalar jahon va O'zbekiston amaliyotida qanday turdagi fintech kompaniyalari aniqlangani, ishlab chiqilishi, tashkil etilishi va joriy etilishi haqida bilim oladi. Kurs nafaqat fintech loyihalari samaradorligini baholashning turli jihatlarini, balki ularni integratsiyalashuvining turli jihatlarini ham qamrab olgan mavzularni o'z ichiga oladi. Ushbu intizom talabalarga tashkilotlarda fintechni qanday yaratish, saqlash va rivojlantirish haqida tushuncha berishga qaratilgan.	5	6	

			Ushbu fan, shuningdek, talabalarni an'anaviy moliyaviy tashkilotlar uchun fintechdagi xatarlarning xususiyatlari bilan tanishtiradi.			
42	G'AZ1605	G'aznachilik	"G'aznachilik" fanini o'qitishning yuqorida keltirilgan maqsadidan kelib chiqqan holda mazkur fan o'z predmetini o'rganish uchun quyidagi <i>vazifalarni</i> qo'yadi: - G'aznachilik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish; - byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosining amal qilish asoslarini o'rganish; - G'aznachilik faoliyatini boshqarishning tashkiliy asoslarini o'rganish; - byudjet tizimi byudjetlarining daromadlarini g'aznachilik orqali shakllantirish mexanizmini o'rganish; - byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlarini g'aznachilik orqali ijro etish va tarkibini o'rganish; - G'aznachilik organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat tizimi asoslarini o'rganish; - G'aznachilik faoliyatini samarali yuritish yuzasidan xorij tajribalarini o'rganish; - byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosini tadbiq etishning shart-sharoitlari, uning afzalliklari va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish; - byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosining amal qilish mexanizmlarini takomillashtirish va h.k.	5	6	
43	MR1605	Moliyaviy risklar	"Moliyaviy risklar" fanini chuqur o'rganish xo'jalik yurituvchi subektlarning zamonaviy korporativ boshqaruvini tashkil etish bilan bir qatorda ularning faoliyatida vujudga keladigan risklarni o'rganish, tahlili qilish va to'g'ri qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. "Moliyaviy risklar" fanini o'rganishda har qanday xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyati va ularning moliyaviy operatsiyalari bevosita turli risklar bilan bog'liqligi yoritiladi. Fanni o'qitishdan maqsad magistratura talabalariga moliyaviy risklar va ularning turlari haqida nazariy bilimlar berish, ularda sub'ektlar faoliyatida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida moliyaviy risklarni samarali boshqarishning asosiy yo'nalishlari va rivojlangan davlat ilg'or tajribasidan kelib chiqib moliyaviy risklarni boshqarish bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.	5	6	
3-bosqich 6-semestr: Tanlov fanlar (5 ECTS)						
44	IM2605	Islomiy moliya	Fanning maqsadi - yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib yetishadigan talabalar uchun islom moliya tizimi, islomiy moliya munosabatlarini tashkil etish, mamlakatimizda islomiy bankiingning mos tomonlarini joriy qilish masalalari ko'rib o'tishdir. Islom moliyasi tushunchasining iqtisodiy mazmuni va mohiyati, islomiy bankning tizimi, Islom taraqqiyot banki va ularning faoliyati o'rganiladi.	5	6	

			Fanning vazifasi – talabalarga islom moliyasini tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatish, moliya tizimi bo‘g‘inlarini va ular orasidagi munosabatlarni o‘rgatishdan iborat.			
45	XVKM260 5	Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari	“Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari” fani bank tizimi uchun iqtisodchi bankirlarni tayyorlashda asosiy maxsus fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fan orqali talabalar xalqaro valyuta, hisob-kitoblar va kredit borasida bilimlarga ega bo‘ladi. Unda xalqaro valyuta tizimi, valyuta operatsiyalari, xalqaro kreditning xarakati va undan foydalanish, tashqi iqtisodiy operatsiyalarga valyuta munosabatlarining ta’siri, to‘lov balansining mohiyati va unga ta’sir etuvchi omillar va boshqa masalalar o‘rganiladi. Fanning maqsadi – “Bank ishi” mutaxassislari uchun valyuta siyosati, milliy valyutaning boshqa valyutalarga nisbatan almashuv kursi, valyuta kursiga ta’sir etuvchi omillar, to‘lov balansining iqtisodiy mohiyati, uning holatiga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlarni o‘rganish bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir. Fanning vazifasi - talabalarni valyuta munosabatlari asoslari, valyuta tizimi, valyuta bozorlari va ularning turlari, bozor konyunkturasi va unga ta’sir etuvchi omillar, qimmatli qog‘ozlar, hosilaviy instrumentlar va ssuda kapitallari bozorlari va undagi operatsiyalar bilan tanishtirishdan iborat. Mazkur fan bo‘yicha bakalavr: - valyuta bozori va valyuta munosabatlarining xususiyatlarini; - valyuta operatsiyalarini amalga oshirishni; - valyutaviy munosabatlarni boshqarishni; - valyuta siyosatini boshqarish usullarini; - milliy va xalkaro hisob-kitoblarning rivojlanish yo‘nalishlarini; - valyuta bozori muammolarini hal etish usullarini bilishi va ulardan foydalana olishi; - valyuta siyosati va uni amalga oshirish tartibi; - valyuta operatsiyalari va ularning tasnifi; - xalqaro hisob-kitoblarni tashkil etish va unga amal qilish; - muddatli valyuta operatsiyalarini tashkil etish; - valyuta bozorining muammolari haqida malakaga ega bo‘lishi lozim; - valyuta bozori holatini tahlil qilish va o‘z vaqtida unga moslasha olish; - valyuta operatsiyalarini tashkil etish va valyuta bozorini	5	6	

			takomillashtirish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish; - valyuta siyosati va valyuta munosabatlarini boshqarish bo'yicha variantlarni ishlab chiqishni va ularni asoslab berish; valyuta bozori holatini tahlil qilish; - tijorat banklarining boshqa nobank tashkilotlari bilan o'zaro aloqasini aniqlash; - valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar; - pul-kredit siyosati instrumentlarining ta'siri va mohiyati; valyuta bozori muammolarining asosiy iqtisodiy talablarini ifodalash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.			
46	LLO2605	Lizing va lizing operatsiyalari	Ushbu fan bo'yicha talabalar lizingning mohiyati, uning moliya tizimidagi ahamiyati, lizing operatsiyalari fanining tarkibi, lizing bilan bog'liq huquqiy tizimlar va ularning bir-biri bilan uzviy aloqadorligi, lizing kompaniyalarining moliyaviy faoliyati, lizing operatsiyalaridan natijadorlik masalalari ko'rib chiqiladi.	5	6	
47	RI2605	Raqamli iqtisodiyot	Ushbu kurs talabalarni "raqamli iqtisodiyot" ning asosiy xususiyatlari va raqobat va tartibga solish bilan bog'liq bir qator masalalar bilan tanishtirishga qaratilgan. Raqamli iqtisodiyotdagi biznes amaliyotlari va shartnomalar samarali xulq-atvordan farq qilishi va qaysi hollarda ular jamiyat uchun foydali yoki zararli bo'lishi mumkinligi turli mavzularda markaziy masala bo'ladi. Raqamli bozorlarga xos bo'lgan haqiqiy holatlar ham tahlil qilinadi. Birinchidan, talabalar raqamli sektorlarda tez-tez yuzaga keladigan platformalar va ikki tomonlama bozorlarning iqtisodiy xususiyatlarini o'rganadilar. Ikkinchidan, kurs turli xil raqamli tarmoqlar uchun axborot iqtisodiyoti qo'llanmalarini qamrab oladi. Xususan, talabalar kim oshdi savdosi nazariyasini o'rganadilar, chunki kim oshdi savdosi odatda reklama xizmatlarini sotish va elektron tijorat uchun ishlatiladi. Uchinchidan, kurs raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan innovatsiyalar va intellektual mulk huquqlari iqtisodiyotini qamrab oladi. To'rtinchidan, kurs blockchain texnologiyasi bilan bog'liq iqtisodiy tadqiqotlarni qamrab oladi.	5	6	
48	YI2605	Yashil iqtisodiyot	Ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin ko'proq siyosiy jihatdan qo'llaniladigan yo'nalishga ega. Yashil Iqtisodiyot hisobotida ta'kidlanishicha, „yashil bo'lishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolatli bo'lishi kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o'lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi	5	6	

			iqtisodiyotga adolatli o'tishni ta'minlashni nazarda tutadi. Uni oldingi iqtisodiy rejimlardan ajratib turadigan xususiyat — bu tabiiy kapital va ekologik xizmatlarni iqtisodiy ahamiyatga ega sifatida bevosita va xarajatlar ekotizimlar orqali jamiyatga tashqariga chiqariladigan to'liq xarajatlarni hisobga olish rejimi. Aktivga zarar yetkazgan yoki e'tiborsiz qoldiradigan tashkilotga ishonchli tarzda qaytariladi va uning majburiyatlari sifatida hisobga olinadi.			
49	XAI2605	Xulq atvor iqtisodiyoti	Xulq atvor iqtisodiyoti fani, insonlarning iqtisodiy faoliyatlarini o'rganish, o'zaro munosabatlarni tahlil qilish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga oid muhim bilimlar va ko'nikmalar to'plamidir. Bu fanni o'rganish orqali insonlar, tashkilotlar va davlatlar o'z faoliyatlarini samarali boshqarish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, xulq atvori va insonga qaramayn xavfli holatlarda qanday mamlakatni himoya qilishga yordam beradi.	5	6	
4-bosqich 7-semestr: Tanlov fanlar (30 ECTS)						
50	SI2705	Sug'urta ishi	Ushbu dastur sug'urta fanining nazariyasi, predmeti va uslubini, muxim tushunchalarni, kategoriyalarni, tasniflarni, sug'urta atamalarini, sug'urta turlarini, majburiy va ixtiyoriy sug'urtani, sug'urta bozori va uning turlarini, sug'urta faoliyatini amalga oshirish va tartibga solish bilan bog'liq qonunchilikni o'rganadi. Sug'urta sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur egallash va shu orqali sug'urta xizmatlarini samarali yo'lga qo'yishni o'rganish, buning uchun sug'urta bozori bo'yicha marketing tadqiqotlarini amalga oshirishni o'rganish va jarayonlarni statistik taxlil qilish, prognozlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.	5	7	
51	BHA2705	Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish	Buxgalteriya hisobini kompyuterlar vositasida yuritish aksariyat korxonalarda odatiy holga aylanib bormoqda. Buxgalteriya dasturlari (programmalari)ni ish faoliyatiga tadbqiq etilishi buxgalteriya hisobidagi buxgalteriya o'tkazma(provodka)lari orqali amalga oshadigan xarajatlar, daromadlarni, xo'jalik yuritishdagi istalgan hujjatlarni avtomatik tarzda aks ettirish, shuningdek, arifmetik xatolarni bartaraf etish uchun keng imkoniyat yaratadi. Kompyuterda birlamchi va hisobot hujjatlari osongina zaruriy shaklga tushadi. Hozirgi paytda biznesni avtomatlashtirish uchun juda ko'p dasturlar mavjud. Ularning har biri o'zining kamchiliklari va afzalliklariga ega. Bugungi axborot asrida, tez ma'lumotlar almashishi va qonunchilikdagi o'zgarishlarni kuzatib borishda, axborot-qidiruv tizimlarning o'rni va zarurligi kun sayin oshib bormoqda. Bu sohada respublikamizda yetakchi o'rinda turuvchi «Norma» axborot-qidiruv tizimlari katta hajmdagi huquqiy axborotni tahlil etishning qulay vositasi bo'lib, qonunchilik bilan bog'liq istalgan masala bo'yicha	5	7	

			tezda optimal qaror topish imkonini beradi. «Norma» axborot-qidiruv tizimi – zamonaviy texnologik yutuqlardan foydalangan holda yaratilgan universal dastur bo'lib, bir necha mavzuviy bazalarni o'z ichiga oluvchi axborot bankidan iborat, ular bilan ishlash kesishuvchi izohlar va kuchli qidiruv imkoniyatlari orqali ko'p funksiyali giper matnda amalga oshiriladi.			
52	SHH2705	Soliq hisobi va hisoboti	Soliq hisobi va hisoboti fani soliq va boshqa majburiy to'lovlar hisobi, soliqqa tortish bazasini aniqlash, soliq hisobotlarini tuzish tartiblarini, soliq to'lovchilar va soliq organlarida hisob-kitoblarni yuritish, soliq ob'ektlarini aniqlash, soliq to'lovchilar bo'yicha soliq va moliyaviy hisobni yuritilishi, soliq hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartibini o'rganish va iqtisodiy mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiriladi hamda soliqqa tortish fanlarining davomi sifatida talabalarga o'tiladi. Soliq hisobi va hisoboti fani asosan amaliyotga bog'liq fan bo'lib, buxgalteriya xisobi ma'lumotlari asosida soliq hisobotlarini to'ldirish va yuborish, soliq organlarining soliq agentlari tomonidan soliqlarni hisoblanishi va to'lanishini Soliq kodeksiga hamda boshqa qonun-hujjatlari asosida soliq nazoratini tashkil vakolatli organlar haqida talabalarga ma'lumotlar beriladi.	5	7	
53	SUNI2705	Sun'iy intellekt	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga suniy intellekt nazariy asoslarini, asosiy tushuncha va kategoriyalarini, suniy intellekt bilan bog'liq texnologiyalarni, sanoatning barcha sohalarida suniy intellektni qo'llash, sun'iy intellekt tuzilmasi va uning imkoniyatlarining chegaralari, sun'iy intellektni sanoatlashtirish asoslarini o'rgatish hamda amaliyotda ularni qo'llay olish xususiyatini shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini o'rgatish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali suniy intellekt muammolarini yechish yo'llarini topa olish qobiliyatini shakllantirish. Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: - suniy intellektning texnologik, holatliy, tashkiliy-huquqiy hamda institusional xususiyatlarini inobatga olgan holda vaziyatlarni to'g'ri modellashtirishni o'rgatish - suniy intellekt qo'llanish bazasini tashkil etish, suniy intellekt texnologiyalarining mohiyatini o'rgatish. - suniy intellektni joriy etish, davlat-xususiy sheriklik shartlarida suniy intellektni rivojlantirish, eng istiqbolli va strategik muhim loyihalarni amalga oshirish, suniy intellektni rivojlantirish uchun platformalar tashkil etish, startaplarni ishlab chiqish va amalga oshirish usullarini bilish ko'nikmalarini hosil qilish.	5	7	

			- suniy intellektning ijobiy hamda salbiy oqibatlari, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashni, suniy intellekt samaradorligini baholashni, muammolarni aniqlash, davlat xususiy sherikchilik asosida suniy intellekt rivojlantirishni, biznes jarayonlarini samarali tashkil etishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholashni, elektron tijorat modellaridan samarali foydalanishni o'rgatish.			
54	MM2705	Moliyaviy menejment	"Moliyaviy menejment" fanining o'rganish iqtisodchilarning bank ishi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida negizli tayyorgarliklari talabidan kelib chiqqan holda ko'riladi. Fanning o'rganishdan pirovard maqsad-moliyaviy menejmentning asoslari bo'yicha bo'lajak mutaxassislarda chuqur nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish, sub'yektning moliyaviy menejment darajasini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun amaliy bilimlar ishlab chiqish, moliyaviy munosabatlar prizmasi orqali sub'yektni strategik maqsadiga erishish, hamda taktik vazifalarni amalga oshirishdir	5	7	
55	LYRS2705	Loyiha yaratish va raqamli startap	"Loyiha yaratish va raqamli startap" fani startap muhitida ishlashda zarur bo'lgan bilim va malakalarni shakllantirish; talabalarning tadbirkorlik sohasiga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, raqamli muhitda startaplarni rivojlantirish bilan bog'liq foyda, imkoniyatlar, shuningdek muammolar va xatarlarni anglash; talabalarni hayotga tatbiq etiladigan startapning jarayonlari va vositalari bilan tanishtirish kabi malaka va ko'nikmalarni shakllantiradi.	5	7	
56	YM2705	Yashil moliya	"Yashil moliya" fanining asosiy maqsadi — iqtisodiyotda ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqlim o'zgarishiga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali moliyaviy tizimni barqaror rivojlantirish tamoyillarini o'rgatishdir. Fan talabalarda "yashil iqtisodiyot", "barqaror rivojlanish", "ekologik investitsiyalar", "yashil obligatsiyalar" kabi tushunchalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni maqsad qiladi. Shuningdek, bu fan orqali kelajakdagi mutaxassislar iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ekologik omillarni inobatga olishni, moliyaviy resurslarni barqaror loyihalarga yo'naltirish zarurligini o'rganadilar.	5	7	
57	BI2705	Bank ishi	Talabalar asosiy bank kontseptsiyasi va printsiplari, banklarning biznes sifatida qanday ishlash asoslari, ularning xavfsiz va sog'lom ishlash va tavakkalchilikni boshqarish majburiyati hamda iste'molchilarga yo'naltirilgan moliyaviy xizmatlar muhitida bank xodimlarining javobgarligini tushunishlari mumkin. Talabalar aktivlari va majburiyatlarini boshqarishdan tortib, kreditlar va investitsiyalardan maksimal daromad olishgacha, shuningdek xarajatlar va xatarlarni minimallashtirish, moliyaviy ko'rsatkichlarni nazorat qilish va kelajak	5	7	

			uchun rejalashtirishdan oldin banklar foydalanadigan va hisobotlarini tushuntiradigan moliyaviy hisobotlarni aniqlay olishadi.			
58	MHXS2705	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	“Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari” fani xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining biznes va ijtimoiy sohadagi oʻrni va ahamiyatini oʻrgatish, biznes jarayonlarini raqamlashtirish, biznes modellari, elektron tijorat, blokcheyn texnologiyalarni qoʻllash boʻyicha yoʻnalish profiliga mos bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirishdir. Fanning asosiy jihati - talabalarga makro hamda tarmoqlar darajasida turli iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilishning asosiy yondashuvlari, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining texnologik, holatiy, tashkiliy-huquqiy hamda institutsional xususiyatlarini inobatga olgan holda vaziyatlarni toʻgʻri modellashtirish, Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari infratuzilmasini tashkil etish, blokcheyn texnologiyalarning mohiyatini anglab etish, global axborot resurs bazalaridan samarali foydalanish, davlat-xususiy sheriklik shartlarida Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini rivojlantirish, axborot xavfsizligi muammolarini aniqlash, elektron biznes jarayonlarini samarali tashkil etish, elektron tijorat modellaridan samarali foydalanish yuzasidan samarali qarorlar qabul qilishni oʻrgatishdan iboratdir.	5	7	
59	MDM2705	Moliyaning dolzarb muammolari	“Moliyaning dolzarb muammolari” fanining asosiy maqsadi — bugungi globallashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy tizimda vujudga kelayotgan iqtisodiy, institutsional va siyosiy muammolarni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan oʻrganish, ularning mohiyatini tahlil qilish va yechim yoʻllarini ishlab chiqishdan iboratdir. Fan talabalarda milliy va xalqaro moliyaviy tizimning rivojlanish qonuniyatlari, moliya bozorlarida yuzaga kelayotgan oʻzgarishlar, davlat moliyasi, byudjet siyosati, soliqqa tortish tizimi, bank sektori, investitsiyalar, sugʻurta bozori hamda raqamli moliya sohalarida uchraydigan dolzarb masalalarni chuqur anglash va tahlil etish koʻnikmalarini shakllantirishni maqsad qiladi. Shuningdek, ushbu fan talabalarga moliyaviy barqarorlikni taʼminlash, davlat moliyaviy siyosatini takomillashtirish, samarali fiskal va monetar mexanizmlarni yaratish, iqtisodiy xavflarni boshqarish, investitsion muhitni yaxshilash hamda barqaror iqtisodiy oʻsishni qoʻllab-quvvatlash yoʻnalishlarida chuqur bilim beradi.	5	7	
60	MX2705	Moliyaviy xavfsizlik	Moliyaviy xavfsizlik boʻyicha chuqur nazariy va amaliy bilim berish, tajribalarni oʻrgatish va oqilona moliyaviy siyosat olib borishni oʻrgatishdan iborat. Shuningdek talabalarni moliyaviy xavfsizlik nazariyasi va amaliyotini hamda moliya tizimi va uning boʻgʻinlariga xos statistik materiallarni miqdoriy tahlil qilishni oʻrgatish; mamlakat va hududlar moliyaviy xavfsizligini taʼminlashning	5	7	

			iqtisodiy mexanizmlarini bilishga; byudjet-soliq, pul-kredit, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning moliyaviy xavfsizlik darajasini baholay olishga o'rgatishdan iborat.			
61	MBS2705	Moliya bozori statistikasi	“Moliya bozori statistikasi” fani o‘quv rejaning uchinchi kursida o‘qitilishi rejalashtirilgan. Fanni o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy maqsad aktuar va taqribiy hisoblash usullarini, davlat qarzi (kredit)ni klassifikatsiyasini, milliy valyutani xarid quvvatini o‘zgarishini baholashni, qimmatli qog‘ozlarning nominal va real bahosini aniqlashni, sug‘urta kompaniyalarining reytingini statistik baholash o‘rgatishdir. Fanning asosiy jihati - talabalarda moliya bozori statistik bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini tadqiq qilishdir. Fan mazmunini anglab yetish uchun mamlakatlardagi iqtisodiy va ijtimoiy xodisa va jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, yalpi ichki mahsulot va milliy daromad xajmi iqtisodiyot tarmoqlarida bandlar va ishsizlar soni, korxonalar va tashkilotlar soni xamda ularning xo‘jalik faoliyati ko‘rsatkichlari, banklardan olingan kreditlar xajmi, foiz darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni statistik usullar yordamida taxlil ishlari amalga oshiriladi.	5	7	
62	SM2705	Soliq ma'murchiligi	Fanning maqsadi talabalarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq ma'murchiligini samarali tashkil etish tizimi, vazifalari va funktsiyalari, soliq ma'murchiligining nazariy, xuquqiy va tashkiliy asoslari bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim va ko'nikma va malaka shakllantirish, soliq idoralarida to'lovchilar va soliq ob'ektlarini hisobga olish va soliqlar va yig'imlar hisobining yuritilishi hamda soliq majburiyatini bajarilishi metodikasiga oid nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgandir.	5	7	
63	DX2705	Davlat xaridlari	Fanning maqsadi esa bo'lajak moliya tizimidagi mutaxassislarda, ya'ni talabalarda davlat xaridi siyosatining mohiyati, uni rejalashtirish, tashkil etish jarayoni va mexanizmi, davlat xaridini samarali tashkil va boshqarishdagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi esa talabalarga davlat xaridining iqtisodiy ahamiyati; davlat xaridining predmeti va subyektlari; davlat xaridini tashkil etish modellari; O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini isloh etish borasida hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar; davlat xaridining huquqiy asoslari, xalqaro savdo tashkilotida davlat xaridi bo'yicha shartnomadan ko'zlangan maqsad; davlat xaridlariga oid umumiy talablar, O'zbekiston Respublikasida Davlat xaridini tashkil etish jarayoni; davlat xaridini rejalashtirish; davlat xaridini tashkil etish shakllari;	5	7	

			davlat xaridlarini tashkil etish tartib-taomillari; davlat xaridlarining nazorat tizimi haqida nazariy-amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat.			
64	AUD2705	Audit	“Audit” fanining mazmuni, predmeti va metodi, audit mohiyati, uning maqsadi va vazifalari, O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tashkil qilishning huquqiy va tashkiliy asoslari, auditorlik kasbiga malakaviy va axloqiy talablar, auditda muhimlik va auditorlik riski va shu kabi mavzular uzviylik va uzluksizlik nuqtai- nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o‘z aksini topgan. “Audit” fanini chuqur o‘rganish tegishli sohalar muammolarini hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. “Audit” fani ijtimoiy-iqtisodiy fan turkumiga kirib, iqtisodiy bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitiladi. Shu bilan bir qatorda “Audit” fani ixtisoslik fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, buxgalteriya hisobi va audit ta’lim yo‘nalishining 3-kursida o‘qitilishi rejalashtirilgan. Mazkur fan boshqa iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog‘liqdir.	5	7	
65	BM2705	Biznes moliyasi	“Biznes moliyasi” fanining asosiy maqsadi — talabalarni korxona va tashkilotlarning moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etish, boshqarish va tahlil qilish bo‘yicha chuqur bilim, amaliy ko‘nikma va tahliliy fikrlash qobiliyatiga ega etishdan iboratdir. Fan orqali talabalar biznes subyektlarining moliyaviy resurslarini shakllantirish, ularni samarali taqsimlash va boshqarish mexanizmlarini o‘rganadilar. Shuningdek, foyda olish, xarajatlarni optimallashtirish, investitsion qarorlar qabul qilish, dividend siyosatini yuritish hamda moliyaviy risklarni boshqarish jarayonlarini tahlil qilishni o‘rganishadi.	5	7	
66	BHVVH2705	Budjet hisobi va hisoboti	O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standartlariga asosan «Byudjet hisobi va hisoboti» fanini talabalarga o‘qitish respublikamiz byudjet tizimiga buxgalteriya hisobi mutaxassislarini tayyorlash bilan bog‘liqdir. «Byudjet hisobi va hisoboti» fani byudjet tizimi uchun buxgalter mutaxassislarni tayyorlashda yetakchi nazariy fanlardan biri hisoblanadi. Unda moliya organlarida g‘azna ijrosi sharoitida davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari hisobi, byudjet ijrosi jarayonida byudjetlar o‘rtasida hisoblashuvlar, byudjet ijrosi natijalari hisobi, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, ularda hisob siyosatining xususiyatlari, daromadlar va xarajatlar smetasi hamda shtatlar jadvalini tuzish, pul mablag‘lari hisobi, mulkiy qiymatliklar hisobi, mehnat va unga tenglashtirilgan to‘lovlar hisobi, turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashuvlar hisobi, budjetdan tashqari mablag‘lar hisobi, budjet tashkilotlarida daromad va xarajatlar smetalari ijrosi natijalari hisobi va hisoboti kabi mavzular ko‘rib chiqiladi.	5	7	

67	DB2705	Davlat budjeti	Fanni o'qitishdan maqsadi – talabalarga byudjetni boshqarishni tashkil etishning nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslari, umumdavlat organlari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish, byudjet tizimi va uning tarkibida amalga oshiriladigan moliyaviy munosabatlarni boshqarish va shu kabi moliyaviy tushunchalar haqida o'rgatish va ularni amaliyotda tadbqiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarga moliyaviy nazoratni tashkil etishning nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslari haqida bilimlar berish, ularda byudjet sohasidagi organlar tomonidan moliyaviy munosabatlarni faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'nalishlarini, byudjet tizimi byudjetlari faoliyatini boshqarish, byudjet daromadlari va xarajatlarini tashkil etish va boshqarish amaliyotini o'rgatishdan iborat.	5	7	
4-bosqich 8-semestr: Majburiy fanlar						
68		Malakaviy amaliyot	Malakaviy amaliyotining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: 1. Ilmiy, konstruktorlik va loyixa tashkilotlarida, birjalarda, banklarda, makroiqtisodiyot va statistika qo'mita organlarida ma'lumotlar yig'ish, ularni qayta ishlashda yangi axborot texnologiyalarini qo'llash usullarini o'rganish. 2. Umumta'lim maktablarida, akademik litseylarda, kasb-hunar kollejlari, institutlarda va universitetlarda o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari asosida olib borish usullari bilan tanishish. 3. Talabalar amaliyot o'tadigan tashkilotlarda mavjud bo'lgan uslubiy ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqnomalar va h.k. hujjatlarni o'rganish. 4. Amaliyot o'tadigan tashkilotlarda mustaqil ishlashning amaliy yakunlarini egallash. 5. Axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilishda, hamda hisobot ma'lumotlarining aniqligini tekshirishda talabalarning bevosita ishtirok etishlarini ta'minlash. 6. Amaliyot o'tadigan tashkilotlarning o'zida mavjud bulgan vazifalarini bajarishi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy ommaviy ishlarni olib borishda ko'maklashish. 7. Ijtimoiy-siyosiy tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlar olib borish sohasida kerakli o'quv bilimlarni egallash. 8. Amaliyot haqidagi hisobotni, ilmiy ishlarni amalga oshirish uchun kerakli materiallarni to'plash.	30	8	
69		Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi	Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi bo'yicha bakalavr tayyorlash o'quv rejasida "Bitiruv malakaviy ishi" bajarishga alohida e'tibor qaratilgan va Oliy o'quv yurtlarida ixtisoslik dasturlarini o'zlashtirish majburiy davlat yakuniy attestatsiyasi hamda bitiruv malakaviy ishining ochiq himoyasi bilan yakunlanadi. Bitiruv - malakaviy ishining mavzusi korxonalar faoliyati jarayonlarini hisobga olish, audit va tahlil yetish muammolariga bag'ishlanib, u Moliya va moliyaviy		8	

		attestatsiyasi sinovi	o'quv rejasida "Bitiruv malakaviy ishi" bajarishga alohida e'tibor qaratilgan va Oliy o'quv yurtlarida ixtisoslik dasturlarini o'zlashtirish majburiy davlat yakuniy attestatsiyasi hamda bitiruv malakaviy ishining ochiq himoyasi bilan yakunlanadi. Bitiruv - malakaviy ishining mavzusi korxonalar faoliyati jarayonlarini hisobga olish, audit va tahlil yetish muammolariga bag'ishlanib, u Moliya va moliyaviy texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha aniq ilmiy amaliy masalalarni hal qilishga qaratilishi lozim. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va ilmiy-amaliy darajasi ta'lim dasturiga javob berishi shart. Ushbu ishning bajarilishi uning muallifi mustaqil ravishda ilmiy (amaliy) izlanish olib borishga, kasbiy muammolarni ko'ra olishga o'rganganligini hamda ularni hal qilishning umumiy usullarini bilishi haqida dalolat berishi lozim.			
--	--	--------------------------	---	--	--	--

- Izoh: 1. 1 kredit 30 akademik soatni tashkil qiladi.
2. Mutaxassislik tanlov fanlariga, kadrlar buyurtmachilarining talablarini e'tiborga olgan holda, o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.
3. O'quv rejaga kiritiladigan ixtisoslikka oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari va laboratoriya ishlari oliy ta'lim muassasasi hamda bazaviy tashkilot va korxonalarda
4. Talaba bilimni baholash universitet kredit tizimiga muvofiq ishlab chiqilgan nizom asosida amalga oshiriladi.
5. *Ushbu blokdan bir malakaga oid tanlov fanlari to'liq 20 ECTS kredit tanlangan holda Qo'sh malaka beriladi. Bunda tanlangan Qo'sh malakadagi fanlar majmuasi mos

Moliya, soliq va bank ishi kafedrasi mudiri



R.M. Gaybullayev